


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 2, ISSUE 2 **2024**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

2 JILD, 2 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 2, HOMEP 2

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 2, ISSUE 2



TOSHKENT-2024

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2024-2>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanzar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanzar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor

Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun
Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Ашимханова Светлана Ашимхановна, Абдуллаева Айнур Аскарровна РОЛЬ СРАВНЕНИЙ КАК ОБРАЗНОЕ СРЕДСТВО В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ.....	8
2. Murodov G‘ayrat Nekovich EPOS VA ROMAN: ADABIY-BADIY BOG‘LANISHLAR.....	13
3. Чупонов Отаназар Отажонович РУКОПИСНЫЕ КНИГИ КАК ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК.....	20
4. Худайбергенова Умида Комилджановна СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ЭРГОНОМОВ.....	26
5. Pardayeva Sojida Ahmatovna WHAT IS PRAGMALINGUISTICS IN LINGUISTICS?.....	34
6. Зеленина Тамара Ивановна, Тойкина Ольга Владимировна МНОГОЯЗЫЧИЕ И МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РАЗНОСТРУКТУРНЫХ ЯЗЫКОВ.....	39
7. Tursunbaeva Gulruh Mukhametovna SELECTED FEATURES OF FILM TRANSLATION AS THE KEY ISSUE IN ACQUIRING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE.....	45
8. Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna INSON TANA A‘ZOLARI HAQIDAGI TOPISHMOQLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.....	51
9. Маркин Владимир Васильевич, Маркина Полина Владимировна СОЦИОКУЛЬТУРНАЯ АДАПТАЦИЯ: СУЩНОСТЬ И ФУНКЦИИ.....	58
10. Ашимханова Светлана Ашимхановна, Абдуллаева Айнур Аскарровна РОЛЬ МЕТАФОР КАК ОБРАЗНОЕ СРЕДСТВО В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ.....	64
11. Абдиева Камола Аслидин кизи ОСНОВНЫЕ ЧЕРТЫ СОВРЕМЕННОГО ЭЛЕКТРОННОГО КОРПУСА.....	70

IQTISODIYOT

1. Xaydarov Ixom To‘xtayevich SUG‘URTA SOHASIGA OID TERMINLAR TAHLILI.....	76
2. Кипкеева Асият Магомедовна ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА РОСТ И РАЗВИТИЕ СТРАНЫ.....	81
3. Annazarova Barno Rustamovna RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA AHOLINI RO‘YHATGA OLISH JARAYONLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH HOLATINING TAHLILI.....	86

PEDAGOGIKA – PSIXOLOGIYA

- 1. Ибраимов Холбой Ибрагимович**
ЗАМОНАВИЙ ЖАМИЯТДА ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ ВА
РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ.....92
- 2. Urazbaeva Dilbar Abdullaevna**
SUT BEZI SARATONI TASHXISLI BEMORLARDA KASALLIKKA MUNOSABAT TIPI
NAMOYON BO‘LISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....97
- 3. Kalandarova Madina Bahadirovna**
PERINATAL PSIXOLOGIYADA PSIXODIAGNOSTIK METODIKALARNI QO‘LLASH....105
- 4. Хазова Светлана Абдурахмановна, Рукавишников Дина Рафаиловна**
СВЯЗЬ ОТНОШЕНИЯ К БОЛЕЗНИ И ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ
ЖЕНЩИН, ПЕРЕНЕСШИХ ХИРУРГИЧЕСКОЕ ВМЕШАТЕЛЬСТВО ПО ПОВОДУ
РАКА МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ.....111
- 5. Jumaniyazova Imira Kamiljanovna**
INSULT KASALLIGINING TIBBIY - PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING NAZARIY
VA AMALIY TAHLILI.....117
- 6. Sadikova Umida Botirovna**
QANDLI DIABET KASALLIGI TASHXISI QO‘YILGAN BEMORLARNING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....123
- 7. Парфёнова Татьяна Вячеславовна**
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ И ЗАКОНОМЕРНОСТИ ЛИЧНОСТНЫХ
ИЗМЕНЕНИЙ КОСВЕННЫХ СВИДЕТЕЛЕЙ ЭКСТРЕМАЛЬНОГО
МАКРОСОЦИАЛЬНОГО СОБЫТИЯ.....128
- 8. Kasimova Xulkar Atabayevna**
NOGIRONLIGI BO‘LGAN TALABALARNING KOPING STRATEGIYALARI
BO‘YICHA OLINGAN NATIJALARNING PSIXOLOGIK TAVSIFI.....132
- 9. Силина Елена Алексеевна, Крюкова Татьяна Леонидовна**
СОЦИАЛЬНЫЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ О НАСИЛИИ В ОТНОШЕНИЯХ ПАРТНЕРОВ.....138
- 10. Jumaniyozova Nasiba Ramatillayevna**
AUTIST BOLALAR BILAN ISHLOVCHI MUTAXASSISLARDA PSIXOLOGIK
STRESSNING NAMOYON BO‘LISHI.....144
- 11. Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna, Fozilova Sabohat Nodir qizi**
PEDAGOGLARDA KASBIY ZO‘RIQISHNI NAMOYON BO‘LISHI VA UNI
KORREKSIYASI.....149
- 12. Qurbonova Shaxloxon Bahodirovna**
GENDER IJTIMOIVLASHUV TUSHUNCHASI VA DIFFERENSIAL FARQLARNING
O‘ZIGA XOSLIGI.....155

TIBBIYOT


- 1. Abdullayev Ravshanbek Babajonovich, Bakhtiyarova Aziza Maqsudbekovna**
CLINICAL CHARACTERISTICS OF PEPTIC ULCER DISEASE IN ELDERLY RESIDENTS
OF THE KHOREZM REGION.....161
- 2. Назарова Малохат Бердибаевна, Адилбеква Дилором Бахтиёровна**
ВЛИЯНИЕ ХРОНИЧЕСКОГО ТОКСИЧЕСКОГО ГЕПАТИТА МАТЕРИ НА СОСТОЯНИЕ
ПЕЧЕНИ ПОТОМСТВА.....166

TARIX

- 1. Mustafa Demirci**
THE GREAT SCHOLAR OF THE MAMUNIDS PALACE: ‘ABU SAHL ISĀ B. YAḤYĀ AL
MASĪNĪ, THE TEACHER OF IBN SĪNA AND BĪRUNĪ, AND HIS UNDISCOVERED
SCIENTIFIC HERITAGE.....172
- 2. Нодира Кадамовна Нуруллаева**
ГОСУДАРСТВО МАЪМУНИДОВ: МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И
РЕЛИГИОЗНАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ.....184
- 3. Лухманова Зарина Талибовна**
ЭФФЕКТИВНОСТЬ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ: МЕТОДИКА РАСЧЕТА.....191
- 4. Ashirov Adhamjon Azimbayevich, Karimov Umrbek Davronbekovch**
O‘ZBEK XALQINING EKIN-TIKINCHILIK MAROSIMLARIDA DINIY VA MILLIY
QADRIYATLAR SIMBIOZI.....209
- 5. Matkarimova Sadokat Maksudovna**
XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA TAOMLANISH MADANIYATI
TARAQQIYOTIDAGI O‘ZGARISHLAR.....215
- 6. Masharipova Gularam Kamilovna**
ABU RAYHON BERUNIY VA ABU ALI IBN SINO ASARLARINING XORIJDIFI
NUSXALARI HAQIDA.....220
- 7. Ғайбулла Бобоёрв Боллиевич, Шоҳрухмирзо Исмоилов Закиржон ўғли**
АБУ РАЙҲОН БЕРУНИЙНИНГ “ОСОР УЛ-БОҚИЙА” АСАРИДАГИ ЎҒУЗ ТУРКЛАРИ
БОШҚАРУВЧИЛАРИНИНГ УНВОНИ “ХОНУВТА”МИ ЁКИ “ЖАБҒУЙА”?.....231
- 8. Abdalov Umidbek Matniyazovich, Pulatov Muhridin**
XORAZMSHOHLAR DAVLATIDAGI IJTIMOY-IQTISODIY MUNOSABATLARGA OID
BA’ZI MASALALAR.....236
- 9. Egamberdieva Nigora Azadovna**
O‘ZBEKISTONDA DAVLATCHILIK SHAKLLANISHINING OMILLARI VA TARIXIY
ILDIZLARI.....242
- 10. Davlatova Saodat Tilovberdiyevna, Matkarimova Nazokat Maksudovna**
МАЪМУНИЙ ХОРАЗМШОҲЛАР ДАВЛАТИНИНГ “ОЛТИН ДАВРИ”
ВА МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ ОЛИМЛАРИНИНГ МУСИҚА ИЛМИ
СОҲАСИДАГИ ФАОЛИЯТИ.....249

Qurbonova Shaxloxon Bahodirovna,
Ma'mun universiteti Psixologiya va tibbiyot
kafedrasi katta o'qituvchisi
Xiva, O'zbekistan
E-mail.: ksahlohon@gmail.com

GENDER IJTIMOIYLASHUV TUSHUNCHASI VA DIFFERENSIAL FARQLARNING O'ZIGA XOSLIGI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.12515672>

ANNOTATSIYA

Gender psixologiyasi tadqiqot obyekti sifatida murakkab jarayon ekanligi shaxs individualligi, madaniy darajasi bilan bog'liq holda shakllanishidir. Ushbu maqolada bemor psixikasi gender tafovutlari tahlil qilingan. Gender ijtimoiylashuv, uning o'rganilishi, psixologik o'ziga xosligi ilmiy nazariy tadqiqotlar va gipotezalarda asoslanishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, yetuklik yosh davridagi bemorlarning moslashuvdagi qiyinchiliklari, xavotirlik darajasining ifodalanishi gender farqlari ifodalangan.

Kalit so'zlar: gender ijtimoiylashuv, ilmiy nazariyalar, psixika, jins masalasi, gender, ijtimoiy ta'sir, biologik shakllanish.

Kurbanova Shakhlokan Bahodirovna,
Senior lecturer at the Department of
Psychology and Medicine, Mamun University
Khiva, Uzbekistan
E-mail.: ksahlohon@gmail.com

THE CONCEPT OF GENDER SOCIALIZATION AND THE SPECIFICS OF DIFFERENTIAL DIFFERENCES

ABSTRACT

The fact that gender psychology as an object of study is a complex process is shaped by individuality and cultural level. This article analyzes gender differences in the psychology of patients. Information about gender socialization, its study, and psychological specifics is based on scientific and theoretical research and hypotheses. There are also gender differences in the severity of the level of anxiety and adaptation difficulties of patients in adulthood.

Keywords: gender socialization, scientific theories, psyche, gender problem, gender, social influence, biological education.

Курбанова Шахлохан Баходировна,
Старшим преподавателем кафедры
«Психологии и медицины» Университета Мамуна

ПОНЯТИЕ ГЕНДЕРНОЙ СОЦИАЛИЗАЦИИ И СПЕЦИФИКА ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫХ РАЗЛИЧИЙ

АННОТАЦИЯ

Тот факт, что гендерная психология как объект исследования представляет собой сложный процесс, формируется в связи с индивидуальностью и культурным уровнем. В данной статье анализируются гендерные различия в психологии пациентов. Сведения о гендерной социализации, ее изучении, психологической специфике основаны на научно-теоретических исследованиях и гипотезах. Также выражены гендерные различия в выраженности уровня тревожности и трудностей адаптации больных в зрелом возрасте.

Ключевые слова: гендерная социализация, научные теории, психика, гендерная проблема, гендер, социальное влияние, биологическое образование.

KIRISH VA DOLZARBLIGI.

Psixologik nuqtai nazardan gender farqlar haqida mulohaza yuritadigan bo'lsak, erkaklar va ayollarda jinsga bog'liq o'ziga xosligi, nima qilishlari kerakligi haqidagi tasavvurlar madaniy me'yorlarga bog'liq tarzda ijtimoiy xabarlar kuchli ta'sir ko'rsatishi e'tirof qilingan. Ijtimoiy psixologiyada e'tirof qilingan normativ va axborot bosimi nazariyasiga ko'ra, insonlar ushbu me'yorlarni qanday o'rganishadi va ularga rioya qilishda nimalar motiv sifatida undayotganini tushuntirishga harakat qilgan. G'oyalar rivojlanish psixologiyasiga xos bo'lsada, ular gender farqlanishga ko'ra ijtimoiy psixologiyada ham salmoqli o'rin egallaydi. Gender rollarning ijtimoiylashuvi, erkaklar va ayollar ijtimoiy jihatdan maqbul bo'lgan narsalarni o'rganishga harakat qilishlari mavzumizda muhokama qilinadi.

Tadqiqotchi Kohlberg (1966) gender psixologiyada kognitiv-rivojlanish nazariyasi nuqtai nazariga ko'ra, gender xulq-atvor bilan bog'liq barcha ma'lumotlar ongda gender sxemalar shaklida aks ettirilishini e'tirof qilib o'tgan. Sxemalarda insonlarning jinsi haqida ma'lumot uzatuvchi hamma narsa mavjud bo'lib, diqqatimizni ma'lum narsalarga qaratamiz, gender sxemalar esa ma'lumotni qayta ishlashga ta'sir qiladi, qo'shimcha ravishda xotiraga ta'sir ko'rsatadi, chunki mavjud g'oyalar doirasiga mos keladigan ma'lumotlarni eslab qolish oson hisoblanadi[3].

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI.

Differensial sotsializatsiyaning boshlanishini bola tug'ilishdan oldingi holat yuzasidan ham ko'rib chiqish mumkin. Ota-onalar o'g'il yoki qiz tug'ishlarni oldindan bilishni xohlashadi. Boshqalar ham buni bilishni istashadi, masalan, homilador ayoldan o'g'il yoki qizligini, uni kim bo'lishini istashini so'rashadi. Atrofdagi qiziquvchilar aynan bolaning jinsi bilan qiziqadilar, chunki ular jinsga qarab, bolalarni turlicha tasavvur qilishadi. Ota-onalar bolaning jinsini bilishni xohlashini asosiy sabablaridan biri, ular unga ism tanlashi, qanday kiyim-kechak, o'yinchoqlar va zargarlik buyumlarini sotib olishlarini va u bilan nima qilishlarini aniqlab oladilar. Ilmiy izlanuvchi Shakin tomonidan shahar atrofidagi do'konlarda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra (1985y), bolalar kiyimlarining 90% uslubi yoki rangi ularning jinsiga xos ekanligi aniqlangan[50].

Meksika odatlariga ko'ra, ota-onalar bolaning jinsi haqida boshqalar adashmasliklari uchun kichkina qizlarning quloqlarini teshib, ularga sirg'a qo'yishar ekan. Amerika madaniyatida bugungi kunda ham yangi tug'ilgan qizlar uchun kamonli elastik bantiklar juda mashhurdir. Shunga asoslangan holda aytish mmkinki, jins juda muhim bo'lgan ijtimoiy o'zgaruvchidir.

Olim Mishel fikriga ko'ra, differensial ijtimoiylashuvni amalga oshiruvchi ikkita asosiy mexanizm bo'lib, bular differentsial mustahkamlanish va differentsial taqliddir (1970). Gender rollarning maqbul xatti-harakati mukofotlanganda va mumkin bo'lmagan gender rollar xatti-harakati jazolanganda, odamlar tomonidan qaysi muayyan xatti-harakat namunasi to'g'ri kelganligiga qiziqishadi. Boshqa odamlar uchun mukofotlash yoki jazolash shartlari differentsial kuchaytirishga ta'sir qilishi mumkin va bu biologik jihatdan jins xususiyatlariga bog'liq bo'lishi mumkin[4].

Rag'batlantirish ko'pincha ijtimoiy ma'qullash shaklida keladi. Aksincha, bizning madaniyatimizda gender rollarga mos keladigan xulq-atvor namunasidan og'ish, aksariyat hollarda, ijtimoiy norozilik bilan jazolanadi. Bir qator tadqiqotchilar Berndt, Heller (1986), Steriker va Kurdeklar (1982) ishlari shuni ko'rsatadiki, me'yorlarga zid ravishda qiz bolalar bilan o'ynaydigan o'g'il bolalar tengdoshlari tomonidan ko'proq masxara qilingan[1].

Tadqiqotchi Perri va uning hamkasblari tomonidan o'rganish natijalariga ko'ra, (1989) 4-7-sinflarda o'qiydigan maktab o'quvchilaridan o'g'il bolalar qizlarga qaraganda tajovuzkor xatti-harakatlari ota-onalar tomonidan kamroq tanbeh berilishini aniqladilar. Lytton va Romney kuzatishlariga ko'ra, (1991) 1966 yildan 1986 yilgacha o'tkazilgan kuzatuv natijalari solishtirilgan. Ota-onalar differentsial ijtimoiylashuvdagi ta'sirini baholashda statistik usullardan foydalanilgan va ular o'z farzandlarida gender xarakterli faoliyatni rag'batlantiruvchi, degan xulosaga kelishgan. 3 yoshdan boshlab bolalar o'zlarini erkak yoki ayollik xususiyatini ishonch bilan taniy boshlaydilar (bu jinsni aniqlash deb ataladi). Bu davrda bolalar erkaklar va ayollar boshqacha ko'rinishga ega ekanliklarini, turli faoliyat bilan shug'ullanishlarini va turli narsalarga qiziqishlarini seza boshlaydilar. Ko'pincha kattalar beixtiyor bolaning jinsini "qanday yaxshi o'g'il/qiz" shaklida zikr qilish yoki bolalarga "o'g'il/qiz bunday qilmasligi kerak" tarzida ifodalab, beixtiyor jinsni aniqlashga undaydilar. Tadqiqotchilar Bern (1989), Emmerich (1977), Martin va Halverson (1983)lar fikriga ko'ra, 7 yoshda, ko'pgina hollarda, 3-4 yoshda bolalar gender doimiylikka erishar ekanlar, ya'ni jins doimiy ekanligini va uni o'zgartirish mumkin emasligini tushunisharkan. Serbin fikricha, kichik maktab yoshida bolalar o'yinchoqlar, kiyim-kechaklar, narsalar va harakatlardagi gender farqlar haqida katta bilimga ega bo'lishadi(1993). Bolalar erkak va ayol o'rtasidagi farqlarni anglaganida, ular odatda eng yaxshi o'g'il yoki qiz bo'lish istagidan kelib chiqib, o'zi bilan bir xil jinsdagi yaxshi namunalarga e'tiborni kuchaytirishadi[6].

Bu hodisa differentsial taqlid deb nomlanadi va u Bandura nazariyasiga ko'ra, ijtimoiy o'rganishga mos keladi (1977), odamlarni kuzatish orqali har xil turdagi xatti-harakatlar o'rganiladi, ular jazolanadimi yoki mukofotlanadimi, bu nisbatan ahamiyatsiz. Ikki yoshdan uch yoshgacha bo'lgan ko'pchilik o'g'il bolalarda ham onasining poyabzalini kiyish, uning kosmetikasini o'ynash va tirnoqlarini lak bilan bo'yashga harakat qilishadi. Biroq, jinsni aniqlash jarayoni tugagach bu holatlar takrorlanmaydi, ular bularning barchasi qizlar uchun mo'ljallanganligini tushunadi va erkaklarning xatti-harakatlariga taqlid qila boshlaydilar[2].

Differentsial taqlid jarayoni bo'yicha aytish mumkinki, ayollar xarid qilish va bayramlarga tayyorgarlik ko'rishni yoqtirishsa, erkaklar bundan qochadilar. Differentsial taqliddan foydalanib, erkaklar televizorda sport dasturlarini ayollarga qaraganda ko'proq tomosha qilishadi.

Smetan va Letourneau (1984) ma'lumotlariga ko'ra, gender doimiylik bolalarni jinsiga mos keladigan xatti-harakatlarni o'rganish uchun ijtimoiy aloqalarni izlashga undaydi, deya baholashadi. Bussey va Bandura (1992) fkriga ko'ra esa, yosh bolalarning jinsiy roli, xulq-atvori tashqi tomondan ijtimoiy bosim bilan boshqarilishini, lekin keyinchalik bolalar o'zlarining xulq-atvor standartlarini ishlab chiqishlarini bildirishdi. Bunda bola o'ziga nisbatan qo'llaniladigan sanksiyalar yordamida xatti-harakatlarini nazorat qilishni o'rganadi. Ushbu xatti-harakatlar modeli gender o'zini o'zi boshqarishning ijtimoiy kognitiv nazariyasi bilan tavsiflanadi[1].

Tadqiqotchi Makkobi va Jeklinlar fikricha, bolalar ikkala jinsdan ham ma'lumot olsalarda, (1974), ular o'zlarining jinsiga mos keladigan xatti-harakatlar namunalarida ishtirok etishadi. Perry va Bussey (1979) tadqiqotlari natijasiga ko'ra, bolalar erkak va ayollarning xatti-harakatlaridagi qaysi jihatlar qanchalik tez-tez sodir bo'lishini kuzatadilar va keyin bu bilimlardan o'zlarining harakatlarini shakllantirish uchun foydalanishlari ma'lum bo'ldi. Lekin shuni ta'kidlash mumkinki, ota-onalar bola uchun yagona ijtimoiylashtiruvchi shaxslar emas, balki uning yagona namunasi ham emas. Gender rolning ijtimoiylashuvi inson hayoti davomida shakllanadigan va rivojlanib boruvchi jarayon bo'lib, u o'zgaruvchan sharoitlarni va yangi tajribalarni aks ettiradi. Gender stereotiplar ko'pincha ijtimoiy normalar sifatida ishlaydi. Normativ bo'lgan va axborot bosimlari bizni gender me'yorlarga moslashishga majbur qiladi. Normativ bosimni izohlashda aytish mumkinki, biz ijtimoiy ma'qullanish va ijtimoiy norozilikdan qochish uchun ham gender rollarga mos kelishga harakat qilamiz. Biz gender me'yorlarni to'g'ri deb hisoblashimiz axborot bosimi ta'sirida bo'ladi,

chunki bizga ijtimoiy ma'lumotlar ta'sir ko'rsatadi. Odamlar an'anaviy gender rollariga har xil darajada mos kelishadi, ba'zilar esa gender tip va roliga ko'ra harakat qilishadi[1].

Gender o'ziga xoslik yosh xususiyatlari bilan ham bog'liq shaklda rivojlanadi va yetuklik yosh xususiyatlariga ko'ra muammoli vaziyatlar faqat gender ijtimoiylashuvga emas, balki yosh xususiyatlarga xos bo'lgan inqirozli vaziyatlar bilan ham bog'liqdir. G'arb psixologiyasida yetuklik davridagi inqirozlarni o'rganish bu yosh davridagi rivojlanishni tahlil qilishning asosiy yondashuvlaridan biridir. Ko'proq shaxsiy o'sishlar ro'y beradigan yosh davrlarini ajratish mumkin: 20 yoshlar atrofida, 30 yoshlar atrofida (28—34), 40—45, 55—60 yoshlarda va nihoyat keksalik davrida. Yetuklik davrida inqirozlarning kechishi, davomiyligi shaxsiy hayotdagi sharoitlarga bog'liqdir. Bu yosh davrida rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi o'sishga va o'z-o'zini takomillashtirishga ichki intilish hisoblanadi. Inqirozni keskinlashtiradigan sharoitlar sirasiga sog'liqning to'satdan o'zgarishi (kutilmagan kasallik, uzoq kasallanish, garmonal o'zgarishlar), ijtimoiy va siyosiy hodisalar, talablarning, sharoitning va ijtimoiy kutilmalarning o'zgarishi va b.) kirishi mumkin[10]. Kritik davrning kechishi turli shakllarda namoyon bolishi mumkin. Bu davrning «inqirozlilik» haqidagi tasavvurga barcha tadqiqotchilar ham qo'shilmaydilar. Inson hayotining «ikkinchi yarmiga» K.Yung ham juda qiziqqan. Hayotning o'rtasini u «ruhning chuqur va qiziqarli o'zgarishlari» ro'y beradigan kritik davr sifatida qaragan². Yetuklik davrida inson ichki o'z-o'zini anglashi, K.Yungning ta'biri bilan aytganda «individualizatsiyani» amalga oshirishi zarur. Hayotining ikkinchi yarmida inson shaxs turli elementlarining muvozanati va integratsiyasi yordamida o'z shaxsining yuksak rivojlanishiga erishishi mumkin. K.Yungning fikricha, shaxsining yuksak darajasiga hamma ham erishmaydi[11]. D.Levinsonning kattalar hayotini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlari qiziqish uyg'otadi. U 35—45 yoshdagi 40 nafar amerikalik erkaklarni o'rgangan, ularning har biri bilan 15 soatlik biografik intervyu o'tkazgan hamda mashhur shaxslarning biografiyalarini o'rgangan.

Natijada erkaklarning hayot siklida har bir 20 yil davom etadigan uch asosiy eralarni aniqlagan. Har bir era davomida individuum hayot strukturasi qayta quradi. Levinson quyidagi o'tish davrlarini ajratgan: — ilk yetuklik — 17—22 yosh; — 30 yoshlarga o'tish — 28—33 yosh; — o'rta yetuklik — 40—45 yosh; — 50 yoshlarga o'tish - 50-55 yosh; — kechki yetuklikka o'tish — 60—65 yosh; — yetuklik davriga kirishning boshlanishi — 17—33 yoshlarga to'g'ri keladi [7]. To'liq yetuk bo'lish uchun yosh erkak rivojlanish jarayonida vujudga keladigan 4 vazifani uddalashi kerak:

1) orzuga erishish va reallik haqida o'ylab ko'rish: asossiz fantaziyalar va umuman erishib bo'lmaydigan maqsadlar, shuningdek, orzuning umuman yo'qligi o'sishga imkon bermaydi;

2) ota-ona bola munosabatlaridan yetuk tengdoshlar dunyosi munosabatiga o'tishni amalga oshirish uchun ustoz topish; 3) o'zining karyerasini qurish; 4) «o'ziga xos ayol» bilan intim aloqalarni o'rnatish, bu ayol unga kattalar dunyosiga kirishga yordamlashadi, uning umidlarini oqlaydi, uning bogliq xulq-atvori va boshqa kamchiliklariga chidaydi, orzulari amalga oshishida uni qahramon deb qabul qiladi. Levinsonning fikricha, o'tish davrlarida inson stresslarni boshdan kechiradi, chunki bu davrda maqsadlar, qadriyatlar, hayot tarzi qayta quriladi va qayta baholanadi. Amerikalik olim G.Shixi, Levinsonning tadqiqotlaridan ilhomlanib, shunday izlanishlarni ayollarda o'tkazadi[10].

TADQIQOT NATIJALARI.

Biz tadqiqot ishimizda bemorlarda kasallikni qabul qilish va unga moslashish jarayonidagi gender farqlarni o'rgandik. Sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarda kasallikka nisbatan munosabatning shakllanishi ham jins xususiyatlarini ifodalaydi. Erkak jinsidagi bemorlar kasallikka munosabatda uni hech qanday qiyinchiliksiz yengish mumkinligini verbal ifodalasalarda, aslida diagnostik natijalarga ko'ra, ularda xavotirlanish yuqoriligini kuzatish mumkin[8].

Tadqiqotimizda Xorazm viloyat Ftiziatriya va pulmonologiya markazida davolanayotgan 46 nafar bemor ishtirok qildi. Ularda kasallikka nisbatan kayfiyat yo'qlik-subdepressiv darajani aniqlash maqsadida Zung Balashevaning “Kayfiyat yo'qlik subdepressiv darajasi”ni aniqlash so'rovnomasi o'tkazildi va quyida natijalar keltirilgan.

Zung Balashevaning “Kayfiyat yo‘qlik subdepressiv darajasi”ni aniqlash so‘rovnomasi” gerontologik yosh davridagi bemorlar gender tafovutiga ko‘ra natijalar tahlili (Mann Uitni mezonini bo‘yicha n=46)

Shkalalar	Jinsi	N	O‘rtacha qiymat	Ranglar summasi	U	p
Kayfiyat yo‘qlik subdepressiv darajasi	Erkaklarda	25	26,42	660,50	164,500	,048*
	Ayollarda	20	18,73	374,50		
	Jami	45				

Izoh: * $p < 0,05$

Zung Balashevaning “Kayfiyat yo‘qlik subdepressiv darajasi”ni aniqlash so‘rovnomasi” gerontologik yosh davridagi bemorlar gender tafovutiga ko‘ra solishtirilganida ishonchli darajadagi tafovutlar aniqlandi ($U=164,500$; $p < 0,05$). Natijalarga ko‘ra, gerontologik yoshdagi bemorlarda, ayniqsa erkaklarda kayfiyat yo‘qlik subdepressiv darajasi ayollarga nisbatan yuqoriroq ifodalangan. Buni shu bilan izohlash mumkin, ushbu davrda ularning ijtimoiy va psixologik mavqesini belgilaydigan muhim omillardan biri jismoniy sog‘liq, jismoniy faollik hisoblanib, jismoniy noxushliklar keksalikda hayotdan qoniqmaslikning muhim sabablaridan biri hisoblanadi[7]. Kasallikning yuzaga kelishi ulardagi qoniqmaslik darajasini oshishiga, kayfiyat tushishiga olib kelar ekan. Gender ijtimoiylashuv g‘oyasiga ko‘ra, bemorlardagi kayfiyat holati ularning oilaviy sharoiti, turmush darajasidan qoniqqanligi, bolalikda shakllangan tasavvurlari bilan bog‘liqligini ham kuzatishimiz mumkin.

Biz bemorning kasallikka bo‘lgan munosabati va aloqa jarayoniga ta’sir qiladigan ba’zi bir shaxsiy fazilatlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, ba’zilar o‘zlari bilan sodir bo‘ladigan muammolar uchun javobgarlikni, asosan, o‘z zimmalariga oladilar, ba’zilar esa sababiga ko‘ra boshqa holatlar bilan izohlaydilar. Ba’zi toifadagilar o‘z kasalligi haqida yaxshi biladi, davolanish jarayoniga qat’iy e’tibor qaratadi, dorilarga sodiqlikni osonlik bilan shakllantira oladi, kasallikni yenga olgandan keyin qayta takrorlanish ehtimolini oldini olish maqsadida profilaktik tartib-qoidalarga amal qilishadi. Ba’zilarida esa buning aksi namoyon bo‘lishi mumkin. Surunkali kasalliklar bilan davolanayotgan bemor ruxiyatida o‘ziga ishonmaslik, o‘ziga past baho berish, xavotirlik, yuqori emosiya, zaif mantiqiy fikrlash, irodaviy fazilatlarining past darajasi, aqliy faoliyatning sustligi, uning psixofizik holatida charchoq, stress, bo‘shashishlar kuzatiladi. Umumiy ma’noda tarqoq yoki ma’nosiz xavotirni boshdan kechirishga moyilligi yuqori bo‘lgan, shaxsiy tashvishga ega bemorlar ham bor.

XULOSALAR.

Bu o‘zini tashqi omillar oldida nochorlik, o‘ziga ishonmasligi, kuchsiz ekanligini namoyon qiladi. Sil bemoriga xos bo‘lgan hulq-atvor o‘zgarishlariga esa—qaysarlik va o‘jarlik, yolg‘izlikka intilish, birovlar bilan muloqotdan qochish bilan ifodalansa, kognitiv buzilishlarda fikrlarini bir joyga to‘play olmasligi, parishonxotirlik, xotirasining pasayishi, bir qarorga kelishining qiyinligi bilan xarakterlanadi. Bemorga xos bo‘lgan bunday o‘zgarishlarni bartaraf qilishda mutaxassis ko‘magi, psixologik xizmatning tashkillashtirilishi natijasida bemorlarda davolanishga sodiqlikni rivojlantirish bilan birga o‘ziga bo‘lgan ishonch mustahkamlanadi, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi buzilishlar, o‘ziga va yaqinlariga bo‘lgan munosabatlar to‘g‘ri tashkil qilinishiga erishiladi, agressivlikning bartaraf qilinishi hisobiga kasallikning tarqalish ehtimoli kamayishiga erishish mumkin[9].

Xulosa sifatida aytish mumkin, yetuklik davridagi insonlarda ma’naviy va ruhiy yetikligi ularda ijtimoiy faollik darajasini belgilab beradi. Ularda boshqalar bilan ijtimoiy bog‘langanlik hissi, ishchanlikni kuchaytirsa, hayotiy davomiylidagi shaxsiy muammolar ijtimoiy begonalashuv hissini, aybdorlik, keraksizlik xislarini rivojlantirar ekan. Bu esa o‘z navbatida xavotirlik, stress holatini rivojlantiradi. Ijtimoiy vaziyatlar bilan bog‘liq muammolar ushbu davrdagi shaxsiy hayotiy qiyinchiliklarsa sabab bo‘lar ekan.

Iqtiboslar / References / Сноски

- [1] Берн Ш. Гендерная психология/ Ш.Берн.-СПб., 2001
- [2] Ильин, Е.П. Дифференциальная психофизиология мужчины и женщины/ Е.П.Ильиню-СПб., 2002
- [3] Kohlberg, L. A. (1966). A cognitive-development analysis of children's sex-role concepts and attitudes. In E. E. Maccoby (Ed.), *The development of sex differences* (pp.82-172). Stanford, CA: Stanford University Press
- [4] Mischel, W. (1970). Sex typing and socialization. In P. H. Mussen (Ed.), *Carmichael's manual of child psychology* (Vol.2). New York: Wiley
- [5] Shakin, M., Shakin, D., & Stemglanz, S. H. (1985). Infant clothing: Sex labeling for strangers. *Sex Roles*, 12, 955-964
- [6] Serbin, L A., Powlishta, K. K., & Gulko, J. (1993). The development of sex typing in middle childhood. *Monographs of the Society for Research in Child Development*, 58, 1-74.
- [7] Z.T.Nishonova, N.G'.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Toshkent 2019
- [8] Qurbonova Sh.Gender psixologiyasi va uning namoyon bo 'lishining psixologik xususiyatlari/ Zamonaviy psixologiyada jamiyatning dolzarb muammolari: echim va istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2024 yil
- [9] Qurbonova Sh. Sil bilan og'rigan bemorlarga psixologik yordam ko'rsatish: Uslubiy qo'llanma/ Sh.B.Qurbonova, Urganch:Khwarezm publisation, 2024.
- [10] Шихи Г. Возрастные кризисы. Ступени личностного роста. СПб. 1999.
- [11] Юнг К. Проблема души нашего времени. —М.: 1993. -С. 467.



ISSN 2181-9696

Doi Journal 10.26739/2181-9696

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

2 JILD, 2 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 2, HOMEP 2

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 2, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000